YANGI O‘ZBEKISTONNING JAMIYAT EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH KONTSEPTSIYASI

Sultamuratov Begis Utebaevich
Urganch davlat universiteti Mustaqil izlanuvchisi
Email: begissultamuratov@gmail.com;
ORCID: 0009-0007-8695-0048;

Yangi O‘zbekistonning jamiyat ekologik madaniyatini yuksaltirish kontseptsiyasi avvalo respublikamizda 1992-yili qabul qilingan Asosiy Qonun - Konstituttsiyamizga asoslanadi. 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasidagi ekologik vazifalar ana shu birinchi Konstituttsiyadagi fundamental g‘oyalarni davom ettiradi. Birinchi Konstitutsiyada “yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir” (24 modda), “atrof-muhitga ehtiyotkora munosabatda bo‘lishga fuqarolar majbur” (50 modda), “er, yer osti boyliklari, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir” (55 modda) deb ko‘rsatilgan. Yangilangan Konstituttsiyada ular yanada oydinlashtirilgan va to‘ldirilgan. Unga ko‘ra (49 modda) har kim yashashga, qulay tabiiy muhitga, ushbu atrof-muhit haqida zarur axborotlar olishga, davlat fuqarolarning ekologik huquqini ta’minlash, shaharsozlikda atrfo-muhitga zararli ta’sirlarning oldini olishga qaratilgan nazoratni, chora-tadbirlarni amalga oshiradi, deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, unda davlat shaharsozlikka oid hujjatlarni, qonunlarda qayd etilganidek, jamoatchilik ekspertizasidan o‘tkazish, mamlakatni barqaror rivojlanishini va ekologik muvozanatni ta’minlashga qaratilgan atrof-muhitni himoya qilish, qayta tiklash va yaxshilash choralarini ko‘radi. Orol oldi bo‘ylaridagi ekologik muhitni yaxshilash, hududning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga oid chora-tadbirlar ko‘rishi ta’kidlangan [1]. “Atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish majburiyati faqat atrofni toza saqlash, ekologiyani

buzmaslik, tabiat ne'matlariga zarar keltirmaslikgina emas, tabiatning barcha boyliklariga (er osti manbalari, hayvonot dunyosi) ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishni nazarda tutadi. Chunki, ularning barchasi tabiat qismi va hayotiy manbalardir" [2]. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan yuqoridagi vazifalar jamiyatning ekologik madaniyatini yuksaltirishda muhim, fundamental ahamiyatga egadir. Biroq jamiyat rivojining permanent xususiyati barcha dasturlar, g‘oyalar va rejalarga o‘z ta'sirini ko‘rsatadi, ya'ni ularga sotsiodinamik voqelik sifatida yondashishni taqozo etadi. Yangi O‘zbekistonning keyingi o‘n yil ichida jahon hamjamiyati bilan integratsion aloqalarining kengayishi, ilg‘or davlatlar bilan tajriba almashishi va jahon standartlari darajasidagi taraqqiyotga erishishni ko‘zlayotgani ekologik madaniyatni yuksaltirish muammolarini ham ana shu o‘zgarishlarga muvofiq, har bir taraqqiyot bosqichining xususiyatlarini hisobga olgan tarzda, amalga oshirishga undamoqda. 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasidagi vazifalar asosan bajarildi, Yangi O‘zbekiston bugun 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq yashamoqda.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining xabar berishicha, Yer kurrasining to‘rtdan uch qismi (75 foizi) va suv havzalarining uchdan ikki qismi (66 foizdan ziyodi) da ekologik muhit sezilarli darajada o‘zgargan. Keyingi besh yil ichida esa yashil o‘rionlarning 32 million gektar maydoni qisqartirilgan, ya'ni inson tomonidan payxon qilingan. Global isish natijasida muzliklar katta tezlikda erib bormoqda. Bu esa suv havzalari va okeanlarga yaqin shaharlar va quruqlik hududlarining suv ostida qolish xavfini tug‘dirmoqda. Keyingi 10 yil ichida yovvoyi olam, ya'ni havonlarning chorak qismi (25 foizi) qirilib bitgan [3]. Ekologik vaziyatlarning bunday buzilishi O‘zbekiston hududlariga ham xosdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning Taraqqiyot strategiyasi kitobida ta'kidlashicha, "O‘zbekistonda ham ekologik muammolar jiddiy tashvish tug‘dirmoqda. Aksariyat hududlarimizda tuproq tarkibi buzilib, unumdor yerlar qisqarib bormoqda, cho‘llanish, suv yetishmasligi, qurg‘oqchilik, aholini

ichimlik suvi bilan ta’minlash jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda... Hozirgi vaqtda Orol fojiasi tufayli 5,5 million gektardan ortiq maydonda Orolqum sahrosi paydo bo‘ldi. Har yili 100 million tonna qum va tuz havoga ko‘tarilmoqda. Bu esa, Orol halokati global muammo ekanini yana bir bor isbotlamoqda”[4]. Prezidentimiz mamlakaiimizdagi ekologik muammolarning jamiyat taraqqiyotiga va inson salomatligiga aks ta’sir etishini aniq misollarda ochib berar ekan, bu boradagi eng muhim vazifa aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish ekanini alohida ta’kidlaydi. U yozadi: “Eng muhim masala – aholining ekologik madaniyatini oshirish haqida jiddiy bosh qotirishimiz zarur. Albatta, bunday muammolarni faqat ma’muriy yo‘l bilan hal etib bo‘lmaydi, bunga yosh avlod qalbida ona tabiatga mehr-muhabbat, unga daxldorlik hissini tarbiyalash orqali erishish mumkin. Ayni paytda, yer, yer osti boyliklari, suv o‘rmonlar, hayvonot va o‘simlik dunyosi, atmosfera havosini muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish sohasidagi faoliyat samarasini yanada oshirish choralarini ko‘rish lozim. Yurtimizda o‘simlik va hayvonot dunyosi obektlarini, ularning xilma-xilligini, tubiiy turkumlari yaxlitligi hamda yashash muhitini saqlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratish darkor. Ushbu yo‘nalishda fuqarolar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar hamda ommaviy axborot vositalari bilan jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishda hamkorlik qilish samarasini ta’minlashga doir muvofiqlashtirish ishlarini tizimli yo‘lga qo‘yish zarur. Mamlakatimizda “yashil iqtisodiyot” printsiplari asosida yurtimizning jadal rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy-ekologik siyosat olib borish kutilgan natijani beradi”[4].

Prezidentimiz ekotizim xizmatlari to‘g‘risida davlat hokimiyati boshqaruvi organlari, shuningdek, jamiyatning barcha qatlamlari xabardorligi va bilimi oshirlishi vazifa ekanini ta’kidlaydi. Bu bilan Prezidentimiz ekotizim xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, bioxilma-xillikni ta’minlash, uni targ‘ib etish, jamiyat qatlamlariga yetkazish kabilar davlat boshqaruv organlari vazifasi ekanini uqtiradi va sotsiobioekomuammolarni hal

etish, amalda bajarish uchun davlat idoralari mas'ul ekanini uqtiradi. Shu maqsadda keyingi yillarda mamlakatimizda 4 qonun, shuningdek, transchegaraviy suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydvalanish to‘g ‘risida 2 ta konventsiya, BMTning iqlim o‘zgarishi to‘g‘rsidagi konventsiyasi, Kioto protokoli xamda Parij bitimi (kommyunekesi) Ozon qatlamini muhofaza qilish to‘g‘risidagi konventsiya va Monreal protokoli, Chiqindilarni transchegeraviy tashishni tartibga soluvchi Bazel konventsiyasi, Turg‘un organik ifloslantiruvchi moddalar haqidagi Stokgolm konventsiyasi, jami 13 ta xalqaro hujjatlarga va bitimlarga qo‘shilgan. Mazkur bitimlar va ratifikatsiya qilingan xalqaro hujjatlar Yangi O‘zbekiston ekologik siyosatining, sotsiobioekomuammolarni tizimli hal etish borasidagi milliy kontseptsiyasining bosh yo‘nalishi hisoblanadi. BMT va xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan ekologik normalar va parametrlarni milliy zaminga tadbiq etish natijasida 2025-yil 15-mayda jamiyatning ekologik madaniyatini yuksaltirishga oid Prezident qarori tasdiqlandi va unda 2030-yillargacha ekologik madaniyatni yuksaltirishga oid kontseptual g‘oyalar ilgari surildi [5].

Sotsiobioekomuammolarni hal etishda hech bir ixtiyoriy tashkilot, uyushma davlat institutlaridek katta kuchga, ta'sir imkoniyatlariga ega emas. Shuning uchun ham davlatimiz sotsiobioekomuammolarni samarali, tizimli va kompleks hal etish maqsadida dunyo tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi ekologiya vazirligi, Ekologiya va ob-havo o‘zgarishi milliy qo‘mitasi, O‘rmon xo‘jaligi agentligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi qoshida Suv va irrigatsiya inshootlari qo‘mitasi, Sog‘liqlikni saqlash vazirligi qoshida Ekologiya va aholi salomatligi byurosi kabilarni tashkil etgan. Ulardan tashqari “Yashil makon”, “Yashil shahar”, “Yashil iqtisodiyot”, “Yashil energetika” kabi ijtimoiy-ixtiyoriy harakatlar, Ekologik siyosiy partiya va yoshlarni o‘z atrofiga birlashtirgan volontyorlar mavjuddir. O‘zbek xalqining xashar umumxalq ijtimoiy harakatining o‘rni beqiyos, u respublikamizni obodonlashtirish, ko‘cha va yon-atroflarni chiqindilardan tozalash, ariqlarning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymaslik,

yordamga muhtoj oilalarning uy atroflarini ta’mirlab, ohaklab berish kabi xayrli ishlarni bajarib keladi. Mazkur etnoan’anani qo‘llab-quvvalash, uni har yarim yilda o‘tkazib turish maqsadga muvofiqdir.

Prezidentimizning “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalarida ochiqlikni ta’minlash hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2024, 26 sentyabr)gi farmoni ekologik siyosatda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, jamiyatni, keng jamoatchilikni ekologik vaziyat haqida xabardor qilib borishni ta’minlashni nazarda tutadi. Masalan, keyingi yillarda ko‘plab ko‘p qavatli binolar qurish an’anaga aylandi, bu borada davlatimiz tadbirkor-shaharsozlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlamoqda. Ammo ko‘p hollarda tadbirkor-shaharsozlar ekologik muammolarni ham keltirib chiqarayotgani sir emas. Shuning uchun kontseptsiyaga muvofiq, balandligi 12 metr, umumiy yer maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq binolarni loyihalashtirishda unga tutash hududlarning kamida 25 foizini ko‘kalamzorlashtirish talabi qo‘yildi. Uy-joy, yo‘l qurilishi atrof-muhitni chang-to‘zonlarga sabab bo‘layotgani sir emas. Ushbu ekologik vaziyatni bartaraf etish ham jamiyatni ekologik madaniyatini yuksaltirishga oid vazifalar qatoriga kiradi. Bu Prezidentimizning 2024-yil 24-sentyabrida qabul qilgan “Chang bo‘ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ta’kidlanadi. Ushbu qaror asosida 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan milliy dastur ishlab chiqildi. Jamiyat ekologiya madaniyatini yuksaltirish mavjud sotsiobioekomuammolarni amaliy hal etish jarayonlari bilan birga yuksalishi mumkin. Biz ekologik tarbiya va ekologik savodxonlikning ijobiy ta’sirini, ijtimoiy-tarbiyaviy mohiyatini rad etmoqchi emasmiz, ular, jamiyatning gumanizatsiyalashtirilishi oshgan sayin, barcha sohalarda ustuvor vositaga aylanishi shubhasizdir. Biroq nazariya bilan amaliyot uyg‘unligi printsipidan kelib chiqadigan bo‘lsak, ekologik madaniyat va ekologik amaliyot ham uyg‘un qaralishi lozimligini anglab yetamiz. Shuning uchun sof ekologik madaniyat yo‘q, u mudom

sotsiobioekomuammolarni amaliy hal etish jarayonlari bilan uyg‘un shakllanadi va yuksaladi. Shuning uchun ham ekologik madaniyatning komponentlarini tahlil qilgan tadqiqotchilar ularning pirovard natijasi, hosilasi sifatida ekologik xulq-atvorni keltirishadi [6]. Yangi O‘zbekistonning jamiyat ekologik madaniyatini yuksaltirish kontseptsiyasi yuqoridagi vazifalar bilan chegaralanib qolmaydi, u ekologik ta’lim, bu soha uchun malakali kadrlar tayyorlash, xorijiy ekotajribalarni o‘rganish, ekohuquq va xalqaro ekohuquq normalarini o‘zbek qonunchiligiga implementatsiya qilish, inson ekologiyasi, bolalar va xotin-qizlar ekologiyasi, mamlakat ekologik xaritasini yaratish, transmilliy sotsiobioekomuammolar, global ekologik muammolar va ularning milliy tajribalar nutai nazaridan tadqiq etish (qiyosiy etnoekologiya) kabi ko‘plab masalalar va vazifalar ham borki, ularning hammasini bir mavzuda qamrab olish aslo mumkin emas. Shunday bo‘lsa-da, ekologik madaniyatni alohida mavzu, ilmiy muammo va ijtimoiy taraqqiyot uchun zarur kontseptual maqsad sifatida o‘rganilishi mumkin. Ammo u mustaqil tadqiqot mavzusi bo‘ladi. O‘zbekistonda ekologik madaniyatning shakllanish jarayonlarida jurnalistlarning roli va hissasi katta, aynan ular sotsiobioekomuammolarni jamiyat oldiga ko‘ndalang qo‘yib keladilar, ijtimoiy fikrga ta’sir etib, kishilarni, aholini mavjud muammoga munosabatlarini shakllantirib keladilar. Jurnalistlarning qidiruvchanlik xususiyati va o‘zining ijod erkinligini himoya qilishi ekologik mavzularni ham qiziqarli, dolzarb va muhim qiladi, ularning materiallariga salmoq beradi. Shunday ekan, jurnalistlarning materiallari tadqiqotchilarning izlanishlaridan kam natija bermaydi, balki ular, o‘zining hozirjavobligi bilan, jamiyat ekologik madaniyatining yuksalishiga ko‘proq ta’sir etadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstituttsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. 20 b.
2. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik. – Toshkent: Adolat, 2013. 210 b.

3. Radionova I.A. Globalnie problemi chelovechestva. Uchebnoe posobie. – Moskva: Prosveshenie, 1995. S.6-9; Novikov Yu.V. Ekologiya, okrujayushaya sreda i chelovek. Uchebnoe posobie. – Moskva: FAIR PRESS, 2005. S. 34-47; Mamashokirov S. Vahimami yoki haqiqat. – Toshkent: Universitet, 2007
4. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi. Uchinchi nashri.- Toshkent: O'zbekiston, 2022. 313-315 b
5. Qarang: “Yangi O‘zbekiston”, 2025, 18-may https://yuz.uz/uz/news/2030-yilgacha-bolgan-davrda-aholining-ekologik-madaniyatini-yuksaltirish-kontseptsiyasi-tasdiqlandi;
6. Zaripova R.S., Maxubraxmanova V.R. Osnovi ekologicheskoy kul'turi. Uchebnik. – Moskva: Yurayt, 2026. S. 32